

# **“Davlat tashkilotlari veb-saytlarini qonun talablariga mosligini ekspertizadan o'tkazish” xizmati reglamenti**

## **1. Xizmat tavsifi (pasporti)**

### 1.1. Xizmat nomi

Davlat tashkilotlari veb-saytlarini qonun talablariga mosligini ekspertizadan o'tkazish.

### 1.2. Xizmat natijasi

Davlat tashkilotlari rasmiy veb-saytlari qonun talablariga mosligini ekspertizadan o'tkazish. Ekspertizadan so'ng murojaat etuvchiga ekspertlar kengashi xulosalari jo'natiladi.

### 1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blanklar olish uchun manzil

«Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tadbiq qilish holatini tahlil qilish va baholash Departamenti.

Manzil: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 30 uy.

E-mail: m&e@egov.uz

### 1.4. Huquqiy asos

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabr 355-son «O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori asosida ishlab chiqilgan «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish holatini baholash metodikasi».

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi tomonidan 2013 yil 16 oktyabrda 382-sonli Buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzuridagi «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi Davlat muassasasi nizomi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2007 yil 23 avgust 181-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining «Interaktiv xizmatlarni sifatli va o'z vaqtida ko'rsatilishini ta'minlash va Davlat interaktiv xizmatlari yagona portali orqali jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish haqida»gi 2013 yil 5 dekabr 466-son buyrug'i.

### 1.5. Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari.

### 1.6. Murojaat etish muddati

Murojaat etish muddati cheklanmagan.

### 1.7. Bajarish muddati

Xizmat ko'rsatish uchun tuzilgan shartnomada bajarish muddatlari ko'rsatib o'tiladi.

### 1.8. Tasdiqni berish muddati

Shartnomaga ko'ra oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng 3 (uch) ish kuni mobaynida.

## **2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish**

### 2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi

Istalgan murojaat etuvchi shaxsga qo'yidagi ma'lumotlar beriladi:

-«Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi joylashgan manzili, ish tartibi, tashrif buyuruvchilarni qabul qilish jarayonlari (telefon orqali oldindan yozilish, murojaat qilingan kuni qabul qilish, jonli navbat va boshqalar)

- xizmat ko'rsatish jarayonlari haqida;
- xizmat ko'rsatish muddati haqida;
- xizmat ko'rsatish reglamenti mavjudligi va reglament bilan tanishish usullari haqida;

### 2.2. Keng xabardor qilish

Xizmat haqida va xizmat ko'rsatish haqida standart ma'lumotlarni olish uchun:

- manzilda: 100015, Toshkent shahar, Mirabod tumani, Oybek ko'chasi, 30 uy;
- telefon orqali: (+998 95) 194-92-05, (+998 71) 252-50-28;
- faks orqali: : (+998 71) 252-50-27;
- email orqali : m&e@egov.uz

### 2.3. Murojaat orqali ma'lumot

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (10 daqiqadan ortiq emas) va kerakli hujjatlarning standart matni, tarkibi ko'rinishida yozma ma'lumot berish;

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha katta hajmdagi ma'lumotni berishni talab qilmaydigan xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (5 daqiqadan ortiq emas);

Faks orqali: tunu-kun yozma murojaatlarni qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni murojaatga binoan jo'natish (3 betdan ortiq emas);

Elektron pochta orqali: tunu-kun istalgan yozma murojaatlarni matnning keng tarqalgan formatlar yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida yozma murojaatlarni qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha oddiy matn formatidagi yozma hujjatlarni yoki ilova qilingan fayl yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishda, ushbu standartning jo'natishga tayyor bo'lgan fayllar, kerakli balanklar, manzilga borish sxemasi mavjudligi.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyida ma'lumot berish

Bosh ofis: 100015, Toshkent shahar, Mirabod tumani, Oybek ko'chasi, 30 uy (mo'ljal: Oybek metrosi bekati, Mirobod dehqon bozori).

2.5. Ishlatiladigan hujjatlar blanklari

Ushbu xizmat ko'rsatishda blanklarni ishlatish nazarda tutilmagan

### **3. Xizmat ko'rsatish**

3.1. Ish vaqti

Ish vaqti 9-00 dan 18-00. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

### **4. Xizmat ko'rsatish jarayoni**

4.1. Kerakli hujjatlar

Shaxsni bildiruvchi hujjat va shartnoma tuzish uchun kerakli hujjatlar.

4.2. Xizmatga to'lov

Xizmatga to'lov xizmatga belgilangan ta'riflarga asosan amalga oshiriladi, xizmat qiymati shartnomada ko'rsatiladi. Hisob raqami:

H/r: 20210000700262000001

Toshkent sh. OAK «Aloqabank» bank OPERU

MFO: 00401

STHR: 302729799

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

Davlat xizmatini ko'rsatish etaplari 1-ilovada ko'rsatilgan.

4.4. Idoralararo xizmat ko'rsatish jarayonlari

Zaruriyati tug'ilganda va ishning tarkibi va xarakteridan kelib chiqqan holda Axborot havfsizlik markazi bilan hamkorlik qilinishi mumkin.

4.5. Rad qilish asosi

So'ralgan hujjatlarning yo'qligi, xizmatga murojaatning to'g'ri kelmasligi.

### **5. Sifatni ta'minlash**

### 5.1. Sifat parametrlari

Shartnomada ko'rsatilgan berilgan parametrlarga to'liq mos kelishi.

### 5.2. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmat ustidan shikoyat qilish

Tuzilgan shartnomaga ko'ra, hamda «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi rahbariyatiga yozma yoki og'zaki murojaat.

## Ilova 1

### Davlat tashkilotlari veb-saytlarini qonun talablariga mosligini ekspertizadan o'tkazish xizmatini ko'rsatish uchun murojaatlarni qabul qilish sxemasi



